

Uzbekistan Airways samolyot bortida Halol taomlar!

2021 2 Iyul

“Ketring” MCHJ tashkiloti yo‘lovchilar, ekipaj a‘zolari va havo kemalarining texnik xodimlari uchun Islomiy qonunlarga muvofiq oziq-ovqat yetkazib berishni tasdiqlaydigan GSO 2055-1:2016, HAS 23000 &23021, MS 1500:2009 standartlari sertifikatini qo‘lga kiritdi.

“Ketring” mas‘uliyati cheklangan jamiyati “Uzbekistan Airways” AJning tarkibiy bo‘linmasi bo‘lib, havo kemasi bortida taom tayyorlash uchun zamonaviy ixtisoslashtirilgan uskunalar bilan jihozlangan. Tashkilot O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya qoidalari va me‘yorlari talablariga javob beradigan, IATA standartiga mos keladigan: vegetarian, hind, musulmonlar taomi, bolalar ovqatlari, mevali oziq-ovqatlar, kosher ovqatlari, tarkibida glyuten (kleykovina) bo‘lmagan maxsus oziq-ovqat turlarini taqdim etmoqda.

Bugungi kunda Uzbekistan Airways havo kemasi bortida parvozlarning davomiyligiga qarab yo‘lovchilarga nonushta, tushlik, kechki ovqat yoki salqin ichimliklar taklif etiladi. 2 soatgacha bo‘lgan parvozlarda yo‘lovchilarga shisha idishda suv, 2 soatdan ortiq davom etadigan parvozlarda esa issiq taomni o‘z ichiga olgan oziq-ovqat taklif etiladi. Toshkent-Nyu-York-Toshkent yo‘nalishidagi parvozlarda ikki marta issiq ovqat taqdim etiladi.

“Uzbekistan Airways” AJ yo‘lovchilariga parvozdan 48 soat avval “Maxsus taom buyurtma qilish” qo‘shimcha xizmatini taqdim etadi. Ushbu xizmatdan aviachipta sotib olayotganda yoki Aloqa markazining +998781400200 raqamiga qo‘ng‘iroq qilish orqali foydalanish mumkin. Eslatma: 2 soatgacha bo‘lgan parvozlarda maxsus oziq-ovqat buyurtma qilish tartibi taqdim etilmaydi.

“Uzbekistan Airways” AJ Axborot xizmati